



## DUTOR IJROCHILIGI ORQALI O'QUVCHILARDA O'ZBEK XALQ MUSIQA MEROSIGA QIZIQISHLARINI OSHIRISH

**Muallif:** Baxtiyorova Umida Musurmon qizi <sup>1</sup>

**Affilyatsiya:** Navoiy Davlat pedagogika instituti San'atshunoslik fakulteti, Musiqa ta'limi va san'at mutaxassisligi 1-bosqich magistranti <sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14465430>

O'zbek xalqi qadimiy boy musiqiy merosga ega bo'lib, bunda o'zbek xalq musiqi cholg'u asboblari katta ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, xalqning milliy cholg'ulari millatning ma'naviy va marifiy boyligidir. Jahon madaniyati va san'ati taraqqiyotida turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalqi tomonidan yaratilgan boy musiqiy merosning butunjahon hamjamiyati tomonidan ehtirol qilinishining o'zi o'tmish tariximiz, bugungi hayotimizga berilgan munosib bahodir. Shu nuqtai nazardan O'zbek xalqining mumtoz musiqiy yodgorliklaridan biri bo'lgan Dutor cholg'usidagi xalq va maqomlarini tadqiq etishi muhim ahamiyatga ega. Chunki, har bir xalq o'z milliy merosi, davrlar osha yuzaga kelgan milliy qadriyatlarini milliy ohanglar orqali tarannum etuvchi va xalqning ma'naviyatiga asoslanib yaratilgan amaliy san'at na'munalari orqali ularga mos keluvchi musiqiy cholg'u asboblariga egadirlar.

Mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan barcha sohada hayotga tatbiq etilayotgan istiqbolli loyihalar, amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar xalqimizning nafaqat turmush tarzi balki, dunyoqarashini ham o'zgartirmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek: “Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish va xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevori”. Shuningdek, madaniyat va san'at rivojiga, ijod ahliga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor misolida ham bunday ezgu jarayonlarni ko'rish mumkin. So'nggi ikki yilda mazkur sohaga oid 20ga yaqin Farmon va qarorlar qabul qilindi. Ular ijrosidan sa'y-harakatlar olib borilmoqda. Mazkur soha bo'yicha mana shunday istiqbolli islohatlar amalga oshirilishiga qaramasdan u bilan bog'liq bo'lgan bir qancha muommolar, jumladan, insonlar orasida milliy musiqamiz va san'atimiz haqida yetarlicha bilimga ega bo'lmaslik kabi muommolar mavjud ekanligi ushbu sohada tadqiqotlar zaruriyatini vujudga keltiradi.

Tarixdan ham ma'lumki, o'zbek madaniyati va san'ati rang-barang tarzda o'ziga xos shakllanib, asrlar osha rivojlanib kelgan. Sharq allomalari Safiuddin Urmaviy musiqiy risolasida, Amuliy “Musiqa risolasi”da, Al-Farobiyning “Katta musiqi kitobi”da, Ahmadiyning “Sozlar munozarasi” asarida, Zaynullobiddin Husayniyning “Risola dar bayoni qonuni va amaliy musiqiy” risolasida, Abdurahmon Jomiy “Musiqliy risola”sida, Darvesh Ali Changiy “Musiqliy risola”lasida, Abdulqodir Marog'iy “Jami al-alhon fi-ilm al-musiqliy” risolalarida, o'z davrini musiqiy cholg'ularning tasnifotini bayon etib, o'rganib tadbiq etish masalalarining turli tomonlariga to'xtalib, fikr-mulohazalarini bildirib o'tganlar. Shuningdek, al-Farobiy, Abdurahmon Jomiy, Amuliy, Darvesh Ali Changiy,

Abdurauf Fitrat, Viktor Belyaevlar o'z musiqiy risolalarida cholg'u sozlariga katta e'tibor bilan yondashib, insoniyat hayotida tutgan o'zni, falsafiy xususiyatlari va tafsinotini yoritib berganlar.

Asrlar o'tishi, davrlar almashinuvi, jamiyat taraqqiyoti mezonida cholg'u sozlar ham hamnafas rivojlanib, zamonga mos takomillashib, mukammallashib borgan. Takomillashish jarayonida esa cholg'ularning shakl va ovoz mezonlarini boyitish katta ahamiyat kasb etgan. Negaki, chiroyli cholg'u go'zal tarannumga ega ekan u xalqning ma'naviy boyligi ekanligini e'tirof etish lozimdir.

O'zbek xalq cholg'u asboblaridan hisoblanmish dutor boshqa ko'plab musiqiy cholg'ularimiz orasida eng qadimiylaridan biri bo'libgina qolmay, mungli ovozi hamda insoniyat ruhiga moyilligi-yu, qalbgga oro beradigan kuy, ohang taratishi bilan ajralib turadi. O'rta Osiyo xalqlarining dutor va dutorsimon (turkman dutorlari, qozoq va qirg'iz do'mbiralari) cholg'ularining zamini bir ekanligi, ushbu xalqlarning ma'naviy ildizlari birligidan dalolatdir. Zero barmoqlarning sehri mayin harakatlari orqali torlar aynan qalb nidosi sifatida ohang taratadi. Xalq orasida dutor "dilkash cholg'u" nomini olgan. Unda ijro etilgan har qanday kuy-ohang qalb torlarini tebratadi. Chunki bu nola qalb istagan ohangdir. [4]. Shu sababdan ham ushbu cholg'uimiz xotin-qizlar qo'lida hasrat quroli, ko'ngil oshnosidir.

Bugungi kunda o'quvchi yoshlarga musiqa va musiqa cholg'ularini o'rgatish bilan bir qatorda, yosh avlodni musiqiy olamini boyitish, go'zallikka undash, yoshlarning musiqiy-estetik didini yuksaltirish, ularning ma'naviyatini oshirish, musiqaning sehri kuchini his ettira oluvchi mohir cholg'u ijrochisi sifatida tarbiyalash musiqashunoslarning asosiy maqsadi bo'lib kelmoqda. Musiqa san'atining rivojlanishi, dunyo xalqlari musiqachilari, bastakorlari va musiqashunoslari o'zaro muloqotlarining kuchayishi natijasida ijrochilikning ham yangi-yangi ufqlari ochilib, cholg'u ijrochiligi sinflarida, cholg'u sirlarini o'rgatish kundan-kun rivojlanib, takomillashib bormoqda. Shuningdek, dutorni ijro etish uslublari ham takomillashib, murakkablashib bormoqda. 1969-yili M.A.Asilov va F.N.Vasilyevlar tomonidan dutor darsligi dastlab bosmadan chiqdi va 1977-yilga kelib bu darslik takomillashtirilib qayta nashr qilindi. Bugungi kunda o'zbek musiqa san'atida dutor ommaviy cholg'u ekanligi va uni o'rganuvchi o'quvchilar soni tobora ortib borayotganligi, shu bilan bir qatorda hukumatimizning musiqa san'atiga, yoshlar tarbiyasiga e'tibori kuchayganligi tufayli musiqiy darslik va o'quv qo'llanmalarga ehtiyoj yanada kuchaydi. [3].

Dutor nafaqat bzining yurtimizda balki, O'rta Osiyo xalqlarida ham, xususan tojik, uyg'ur, qoraqalpoq, turkman kabi qardosh xalqlarda ham keng tarqalgan. Dutor cholg'usining takomillashtirilishi(rekonstruksiya qilinishi) natijasida dutor prima, dutor sekunda, dutor alt, dutor tenor, dutor bas va dutor kontrabas kabi dutor turlari vujudga keldi. Bulardan dutor alt, dutor bas va dutor kontrabaslar o'zbek xalq cholg'ulari orkestrlari tarkibidan doimiy o'rin egalladi.

Dutor milliy cholg'u asbobida milliy kuylar bilan bir qatorda, barcha chet el kompozitorlari tomonidan yaratilgan murakkab asarlarni ham mohirona ijro etish mumkin. O'zbekistonda taniqli sozandalardan G'ulom Qo'chqorov, Orif Qosimov, Hamidulla Nurmatov, Turg'un Alimatov, Abdusamad Ilyosov, Faxridin Sodiqov, Boqijon Rahimjonov, Habibullo Rahimov, Oydin Abdullaev, Abdurahim Hamidov, Ro'zibibi Hojiyeva, Iqbol Toshpo'latova, Sulton Qosimov, Malika Ziyayeva, Gulchehra

Muhammedova, Shavkat Rahimov, Shuhrat Razzoqov singari mohir sozandalar dutor ijrochiligini yanada takomillashishiga katta hissa qo'shdilar. O'quvchining dutor cholg'usida asarlarni o'rganishi va ijro etishi uchun o'z ustida ishlashi va tinimsiz mehnat qilishi zarur bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

Petrosyans A. I. "Cholg'ushunoslik". 3-nashri Toshkent – 1990 y.

Rasultoyev J. K. "O'zbek dutor ijrochiligi". Toshkent – 1997 y.

Hojiyeva R. "Dutor taronalari". Toshkent – 2007 y.

Omonqulova Sh. N. "Cholg'u ijrochiligi". Samarqand – 2020 y.

